O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR

mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami

(2024-yil 17-18-may)

(1-qism)

JIZZAX-2024

“Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar” mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali, 2024-yil 17-18-may. 410-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., PhD. O‘ralov A.I.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., t.f.f.d.(PhD), dotsent Abdumalikov A.A., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), dots. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dotsent Alibayev S.X., p.f.f.d. (PhD) Halimov O‘.H., p.f.f.d.(PhD), dotsent Karshiyev A.A., f.f.f.d.(PhD), dotsent Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dotsent Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD), dotsent Mustafaqulov M.A., f.f.f.d. (PhD) Alibekov D.A.., f-m.f.f.d. (PhD) Sharipov X.F., ps.f.f.d.(PhD) Norbekova B.Sh., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Qayumov O.A., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma’ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

“Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” nomli maxsus rezolyusiya qabul qilinganligini alohida eslab o‘tish o‘rinlidir.Mazkur rezolyusiyaning qabul qilinishi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil sentyabr oyida Nyu-York shahrida bo‘lib o‘tgan BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida ilgari surgan tashabbusning amaliy ifodasi sifatida aytib o‘tish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida: “O‘zbekiston millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik sohasida o‘z an’analariga doimo sodiq bo‘lib, bu yo‘ldan hech qachon og‘ishmasdan ilgari boradi. Mamlakatimizda turli millat va diniy konfessiyalar vakillari o‘rtasida o‘zaro hurmat, do‘stlik va ahillik muhitini mustahkamlashga birinchi darajali e’tibor qaratiladi. Bu – bizning eng katta boyligimiz va uni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash barchamizning burchimizdir”,–deya bejiz ta’kidlanmagan.

Xalqimiz mentaliteti va ma’naviyatiga xos bo‘lgan millatlararo totuvlik va bag‘rikenglikni ta’minlanishi avvalo, jamiyatimizda ezgu g‘oyalar va insoniy fazilatlarni kamol toptirish, yurtimizda tinchlik va barqarorlikni hukm surishining asosiy kafolati sanaladi. Va bundan keyin ham millatlararo totuvlik va hamjihatlik yurtimizda tinchlik, barqarorlikni saqlashning samarali omili bo‘lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Islom Karimov-"Yuksakma’naviyat-yengilmas kuch"-Toshkent-2008y;
2. Mirziyoyev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. Toshkent: “O‘zbekiston”, 2016;
3. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T., 2014;
4. Khatamovich T. I. Improving of artistic talents on students with the use of projective-research knowledge, skills and abilities //Current research journal of pedagogics. – 2022. – Т. 3. – №. 02. – С. 97-102. Xatamovich T. I. Formation Of Readers' Reception in The Process of Studying Modern Foreign Literature //Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. – 2022. – Т. 5. – С. 59-62.
5. Тугалов И. Роль чтения художественной литературы в процессе воспитания //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 657-659.
6. Khatomovoich T. I. Aesthetic Education as an Important Factor of Spiritual Development //Texas Journal of Philology, Culture and History. – 2022. – Т. 6. – С. 10-12.
7. Тугалов И. Бадиий талқин ёрдамида психологик таҳлил //Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 493-495.
8. Xatamovich T. I. Formation Of Readers' Reception in The Process of Studying Modern Foreign Literature //Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. – 2022. – Т. 5. – С. 59-62.

TURKISTON HUDUDIGA F.K.GIRS REVEZIYASINING AMALGA OSHIRILISH MASALALARI

B.G‘. Rasulov

O‘zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti
rasulovbaxtiyor219@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Imperatorning maxfiy maslahatchisi senator Feodor Karlovich Girsning 1882-1884-yillardagi Turkiston general-gubernatorligida reviziya o‘tkazishining sabablari va 1865-,1867-,1873-,1881-yillardagi Turkistonning boshqarish to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizom loyihalarining tuzilishi masalalari yoritilgan

Kalit so‘zlar: Turkiston general-gubernatorligi, Feodor Karlovich Girs, Farg‘ona viloyati, Zarafshon okrugi, Amudaryo bo‘limi, Sirdaryo viloyati, 1865-1866-yillardagi Dasht komissiyasi, 1865-yildagi Turkiston viloyatini boshqarish to‘g‘risidagi nizom, 1876-yil, Fon Kaufman, G.A.Kalpakovskiy.

Turkiston general-gubernatori, general-letenant M.Chernyayevning iltimosiga ko‘ra 1882-yilda Rossiya Imperatori Aleksandr III Turkiston o‘lkasini reveziya qilish to‘g‘risidagi farmon chiqardi. Reviziyadan ko‘zlangan maqsad Turkiston o‘lkasining ma’muriy, sud-huquq va moliyaviy masalalar bo‘yicha holatini aniqlash, hududni boshqarish to‘g‘risida ishlab chiqilgan qoidalarning qay darajada amal qilinayotganligi bo‘yicha hisobotlarni hukumatga taqdim etish edi [1-2-bet].

Reviziyaga imperatorning maxfiy maslahatchisi senator F.K.Girs rahbarlik qilib, unga imperiyaning yuqori darajadagi lavozim egalari jalb qilinadi va komissiya tarkibiga kiritildi. Reviziya ishlarini olib boorish uchun 1882-yil 20-oktyabr kuni harbiy vazir Vannovskiy tomonidan tasdiqlangan oliy buyruq bilan taftish yo‘riqnomasi tayyorlandi, unda reviziyaning qanday tartibda o‘tkazishi, taftish komissiyasining huquq-majburiyatlari belgilab berilgan [2-3-bet]. Imperatorning maxfiy maslahatchisi F.K.Girs rahbarligida komissiyaga ichki ishlar vazirligidan N.Galdinskiy, Moliya vazirligidan imperiyaning Qashqardagi konsuli N.Petrovskiy, Bojxona deportamentidan S.Ezuchevskiy, Adliya vazirligidan Novgorod okrugi sudi prokrori A.Ditlovlar jalb qilindi va general-gubernatorlik tarkibidagi barcha uyezdlarni o‘rganib chiqish topshirig‘i berildi[5-423-bet].

F.K.Girsga topshirilgan vazifadan maqsad hukumatning umumiy mohiyatini aniqlash, imperiyaning qolgan qismlarida o‘rnatilgan va qonuniylashtirilgan tartiblaridan chetga chiqish holatlarini oydinlashtirishdan iborat edi. Shuningdek, tekshirish natijalari asosida o‘lkani boshqaruv to‘g‘risidagi yangi loyihani ishlab chiqish vazifasi ham belgilandi. Taftish hisobotlari har bir hudud kesimida alohida-alohida keltirilgan bo‘lib, bular Sirdaryo, Farg‘ona viloyatlari, Zarafshon okrugi Amudaryo bo‘limlari hisoblanadi. Hisobot uchta asosiy bo‘limdan iborat bo‘lib, bular ma’muriy, sud-huquq, moliya masalalarini o‘z ichiga oladi[1-2-bet].

F.K.Girs reviziyasi materiallarida keltirilishicha, 1865-yil 15-iyul kuni Toshkent Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinib Orenburg general-gubernatorlik tarkibiga kiruvchi Turkiston viloyati tuziladi, uning harbiy gubernatori qilib general-letenant M.Chernyayev tayinlandi. Shu yilning 6-avgustida imperatorning Turkiston viloyatini boshqarish to‘g‘risida vaqtinchalik nizom e’lon qilib, keyingi ikki yil davomida ushbu nizom asosida boshqarib kelindi. 1865-yildagi nizomning asosiy maqsadi, bosib olingan hududlarda tinchlik va xavfsizlikni taminlashdan iborat edi.

O‘sha davrda mintaqaning ahamiyatidan kelib chiqib barcha boshqaruv organlari harbiyalar qo‘lida to‘plandi. 1865-yil Toshkentni bosib olish bilan deyarli bir vaqtda Orenburk va G‘arbiy Sibr hududlarida istiqomat qiluvchi ko‘chmanchi aholi hamda yangi bosib olingan hududlardagi o‘troq aholining turmush tarzini o‘rganish maqsadida F.K.Girs boshchiligida Dasht komissiyasi tashkil etilib, bu hududlarni boshqarish bo‘yicha xulosalarni ishlab chiqish masalasi topshirildi [1-3-bet].

1867-yil 11-aprelda yuqori darajadagi buyruq asosida Semipolatensk viloyatining janubiy qismlaridan boshlab to Turkistonni Rossiya imperiyasi bosib olgan hududlarida Turkiston general-gubernatorligi boshqaruvini tashkil qilish masalasi ishlab chiqildi va uning boshqaruv tizimi sifatida;

1) harbiy va mahalliy hokimiyatning ajralmasligi va uni bir qo‘lda to‘plash masalasi;

2) mahalliy aholini boshqarish uchun xalq vakillaridan saylangan shaxs orqali barcha masalalarda ichki boshqaruvni taminlash masalalari belgilandi [1-3-bet].

Yuqorida keltirilgan Turkiston hududini ma’muriy loyihasi Dasht komissiyasi tomonidan belgilangan ko‘rsatmalar asosida tuzilgan.

1867-yilda tashkil etilgan Turkiston general-gubernatorligining boshqaruv loyihasi qo‘yidagilardan iborat edi;

a) Turkiston o‘lkasi imperiya harbiy tasarrufida qoldirilib, hududni boshqarish u yerda joylashgan harbiy idoralarga topshirilgan;

b) mahalliy hokimiyat aholi orasidan saylangan vakillarga, hududning urf-odatlariga amal qilgan holda taqdim etilgan;

c) o‘lkaning ma’muriy boshqaruviga imperiyaning ma’muriy organlari tuzilmasi bilan mos keladigan boshqaruv tizimini bosqichma-bosqich joriy etish vazifasi topshirildi[1-3-bet].

Yuqorida keltirilgan tamoyillar asosida mintaqada boshqaruvni tashkil etish amalga oshirildi. F.K.Girsning hisobotida keltirilishicha, mahalliy aholining aksariyati yangi tartibni qabul qilib, ma’muriyatning harakatlariga ishonch bildirgan.

1868-yilda Orenburk va Sibr cho‘l o‘lkalarini boshqarish to‘g‘risidagi Nizom loyihalarini ko‘rib chiqish chog‘ida imperiya vazirlar qo‘mitasi 1868-yil 21-oktyabrdagi buyrug‘i bilan Turkiston general-gubernatorligiga ikki yil muddatda boshqaruv loyihasining yangi variantini ishlab chiqish vazifasi belgilandi[1]

1871-yilga kelib general adyudant Fon Kaufman tashabbusi bilan ishlab chiqilgan yangi nizom loyihasi hukumatga taqdim etildi. Turkiston general-gubernatorligini boshqarish to‘g‘risidagi ushbu nizom loyihasida uning vakolatlari sezilarli darajada kengaytirilgan bo‘lib, bu esa imperiyadagi vazirliklarning jiddiy e’tiroziga sabab bo‘lib, natijada tuzatish uchun qaytarib yuborildi.

1873-yilda qayta ko‘rib chiqilib ko‘p jihatdan o‘zgartirilgan ushbu nizom loyihasi yana vazirliklar tomonidan ko‘rib chiqish uchun taqdim etildi. Ammo bu safar ham Nizom loyihasi harbiy vazirlik qoshidagi maxsus komissiyadan o‘tmadi. Ayniqsa, Moliya vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi, Davlat nazorati organlari loyihaning asosiy tamoyillarini qoniqarsiz deb hisobladi. Xususan, yer tuzilish masalasi siyosiy jihatdan xavfli deb hisoblandi va qayta tuzatish kiritish uchun qaytarildi [1-4-bet]].

Turkiston general-gubernatori Fon Kaufman o‘lkani boshqarishda imperiya belgilagan nizom loyihalaridan chetga chiqib o‘z maylicha boshqarganligini ko‘ramiz.

Masalan, Sirdaryo viloyatini boshqarishda 1867-yilgi boshqaruv to‘g‘risidagi nizom asosida belgilangan vakolat doirasidan chiqish holatlari kuzatiladi. Bundan tashqari Zarafshon okrugi va Amudaryo bo‘limini boshqaruvini tashkil etish jarayonida vaqtinchalik nizom loyihalaridan chetga chiqish, shuningdek, 1867-yildagi O‘rta Osiyoni boshqarishning asosiy tamoyillarida sezilarli darajada o‘zgartirishlar kuzatiladi.[1-5-bet]

1876-yil 19-fevraldagi Imperatorning oliy farmoniga binoan, Qo‘qon xonligi o‘rnida Farg‘ona viloyati tuzilib, uni boshqarish Fon Kaufmanning buyrug‘i bilan 1873-yildagi nizom asosida amalga oshirilgan. Sud tizimi esa 1867-yildagi vaqtinchalik nizomda belgilangan. Hududni boshqarish, Imperya vazirlik idoralarining e’tiroziga qaramay 1873-yidagi nizom loyihasi asosida amalga oshirilganligini ko‘rishimiz mumkin.

1881-yildan hukumat qarori bilan mintaqani boshqarish uchun, xarajatlarni kamaytirish va olinadigan daromadlarni ko‘paytirish zarurligi ta’kidlandi. Natijada 1881-yilning yanvar oyida harbiy vazir mintaqaning tuzilishi to‘g‘risida yakuniy qaror chiqardi. Fon Kaufman vafotidan so‘ng 1881-yilning oxiri-1882-yilning boshlarida vaqtincha general-gubernatori vazifasini bajarayotgan general-letenant Kalpakovskiy Turkistonni boshqarish to‘g‘risidagi uchinchi nizom loyihasini ishlab chiqish jarayonini davom ettirdi 1881-yidagi nizom loyihasi ham 1873-yidagi loyihasi kabi kamchiliklardan xoli emas edi.

1881-yildagi loyihani muhokama qilish uchun general-adyudant Skobelov boshchiligida vazirliklar vakillaridan iborat maxsus komissiya tayinlandi, ammo mintaqaga yangi general-gubernator M.Chernyayevning tayinlanishi bilan ushbu komissiyaning ishi to‘xtatildi [3-71-bet].

Yangi general-gubernator Turkistonda reviziya o‘tkazish uchun imperiyaga iltimosnoma jo‘natdi. Natijada Turkistonning butun boshqaruv tizimini taftish qilish va shu asosida yangi boshqaruv loyihasini tayyorlash maqsadida imperatorning maxfiy maslahatchi F.K. Girs boshchiligida komissiya tayinlandi.[3-70-bet]

Turkiston general-gubernatori tomonidan hududni boshqaruvi bo‘yicha izchillik bilan ishlab chiqilgan loyihalarning yuqorida qisqacha tavsiflaridan ko‘rishimiz mumkinki o‘lkada qonun bilan tasdiqlangan va ma’lum ma’noda bir-biridan farq qiluvchi to‘rtta vaqtinchalik normaga amal qilingan.[1-6-bet]

Imperiya tomonidan yuborilgan Girs boshchiligidagi reveziyaning maqsadi yuqorida keltirilgandek Turkiston o‘lkasini ma’muriy, sud-huquq va moliyaviy munosabatlaridagi mavjud kamchiliklarni o‘rganib, xulosalarni markazga taqdim qilish va shu asosida hududni boshqarishning doimiy boshqaruv nizom loyihasini yaratish edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Гирс Ф. К. Отчет ревизирующего по высочайшему повелению Туркестанский край тайного советника Ф. Гирса. / Ф.К. Гирс. – СПб.: Б.м., 1883. – 464 с.

2. O‘z MA, 1-Jamg‘arma 27-ro‘yxat, 276a-yig‘ma jild.
3. O‘zbekistonning yangi tarixi birinchi kitob, Turkiston Chor mustamlakachiligi davrida “ Sharq” nashriyot T; 2000
4. Белявский Н. Материалы по Туркестану. СПб., 1889.
5. Д. В. Васильев Бремя империи Административная политика России в Центральной Азии Вторая половина XIX в. М.2018.

MODERN INTERACTIVE MEANS OF TEACHING RUSSIAN AS A FOREIGN LANGUAGE

Vishnyakova E.A
Candidate of Philological Sciences,.
Lev Tolstoy Tula State Pedagogical University
vishnyalis@yandex.ru

Abstract: The article discusses the use of modern means of teaching Russian as a foreign language. Attention is paid primarily to interactive learning tools that allow teachers and students to choose those that correspond to their level of Russian language proficiency, age, content and interests.

Keywords: Russian as a foreign language, learning tools, online services, interactive learning tools.

Russian as a foreign language occupies an important place among languages in the modern world. The Russian language, connected with all spheres of human life and society, is a linguistic and cultural phenomenon that plays a special role in the period of modern intercultural interactions. Teaching and learning Russian as a foreign language contribute to the interaction of different peoples in key areas – cultural, informational, economic and others.

Interactive learning tools are of great importance today, which, on the one hand, are technical devices that provide an opportunity for the student, and, on the other hand, it is also a kind of electronic educational resource [2]. In this regard, we can talk about the relevance of using Internet technologies, namely, various platforms and services in teaching Russian as a foreign language due to the widespread use of online learning in this area. There are more and more resources designed to organize the student's learning environment. Distance education, as a rule, is understood as a form of education in which traditional and specific methods, means and forms of education based on computer and telecommunication technologies are used in the educational process [1].

One of the most interesting resources is the electronic textbook "Success", which was created for beginners to learn Russian as a foreign language. It can also be useful for those who want to consolidate their knowledge in practice. The electronic textbook consists of 78 lessons and provides training in accordance with the requirements of Russian as a foreign language at an elementary level. With the help of this textbook, you can study the Russian language comprehensively, in the unity of phonetic, grammatical, lexico-semantic, communicative, sociolinguistic and pragmatic language